

QADIMGI MISR VA ELLAM TAMADDUNLARIDA MUSIQA

Amonova Munisa Shavkat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqa ta`limi yo `nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Raxmatullayev Xumoyun Shafoatovich

Termiz davlat pedagogika instituti,

Musiqa mahorati va madaniyati kafedrasi

katta o `qituvchisi, dots.v.b

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Misr paydo bo`lish va rivojlanish tarixi, Misrning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, Qadimgi Misr musiqa madaniyati, Misrda kashf etilgan ilk cholg`ular, Qadimgi Misr musiqa ladi va Ellam davlatining tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, musiqa madaniyati , cholg`ulari va an`analari haqida so`z boradi.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о происхождении и развитии Древнего Египта, экономико-социальной жизни Египта, музыкальной культуре Древнего Египта, первых музыкальных инструментах, музыкальной традиции Древнего Египта, а также о истории, социально-экономическом положении, музыкальной культуре, инструментах и традициях государства Элам.

Abstract: This article discusses the origin and development of Ancient Egypt, the economic and social life of Egypt, the musical culture of Ancient Egypt, the first musical instruments discovered in Egypt, the musical tradition of Ancient Egypt, as well as the history, socio-economic situation, musical culture, instruments, and traditions of the Elamite state.

Kalit so`zlar: qadimgi Misr, Nil, Ashel, Nom, nay, fleyta, truba, arfa, marosim, goboy, dehqonchilik, shumerlar, Ossuriya, fors saroylari, Evropa, Mesopotamiya, Elam podsholigi, akkod, jez karnay, madaniyat.

Kirish

Qadimgi Misr va Ellam tamaddunlarida musiqa muhim ijtimoiy va diniy ro'l o'ynagan. Misrda musiqa ibodatlar, diniy marosimlar va saroylar uchun ajralmas bo'lib, uning o'ziga xos asboblari, xususan, harf, arp, qobuz kabi musiqiy asboblari keng tarqalgan. Misrda musiqa xushomad qilish, sog'likni tiklash, hatto tabiatni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ham ishlatilgan. Ellam tamaddunida esa musiqa hamda raqs madaniyatining chuqur ildizlari mavjud bo'lib, ularning diniy marosimlarida, bayramlarda va turli jamiyat yig'inlarida muhim o'rin tutgan. Musiqa, shuningdek, ilmiy va falsafiy qarashlar bilan bog'lanib, inson ruhiyatini yuksaltirish va uyquni yaxshilash kabi maqsadlar uchun ishlatilgan. Har ikki madaniyatda ham musiqa, nafaqat san'at sifatida, balki diniy va falsafiy jihatlarda ham muhim rol o'ynagan.

Qadimgi Misr

Qadimgi Misr - Afrikaning shimoliy-sharqida, Nil daryosining quyi oqimida joylashgan qadimgi davlat sifatida qaraladi. Misrda odamlar paleolit davridan boshlab yashaganlar. Miloddan avvalgi 10-6 ming yillikda Nil atrofidagi savannalarda tarqoq yashagan qabilalar terimchilik, ovchilik, keyinroq esa baliq ovlash bilan shug‘ullanishgan. Ular orasida kad, som xalqlariga mansub qabilalar, barbarlar, va kushitlar bo‘lib, ularning aralashuvidan miloddan avvalgi IV - ming yillikda Misr xalqi vujudga kelgan . Aholi nufuzining ortishi barobarida chorvachilik va dehqonchilikka o‘tishni tezlashtirgan, bu esa o‘z navbatida hududiy jamoalarning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Shubha yo`qli Misr insoniyat tamaddunlarining eng yirik va eng qadimgi o`choqlaridan biri bo`lgan. Misrning Afrika qitasining aqilli odam(Homo sapiensaqilli odam 6-7 million yillar oldin) paydo bo`lgan va tarqalgan eng serunum, chuchuk suvli Nil daryosi bo`ylarida ekanligi, uni odamzot uchun eng qulay sharoitli makonga aylanishiga sabab bo`lib xizmat qilgan. Bu qitaning issiq iqlimi odamlarning yashab qolish imkoniyatlarini oshirgan. Misrdan topilgan eng qadimgi ustachilik va ov qurollari quyi paleolitning Ashel(paleolit arxeologik davriga kiruvchi madaniyat. ilk poleolit) davriga tegishli bo`lib, bundan 1,5 million yillar oldin yashagan homo sapiens tomonidan yasallgan. Rivojlangan tamaddunlar va Fravnlar davriga qadar ham Misrda Xalfan va Kubban (er.old. 22 ming yilliklar), Sebil (er.old. 13 ming yilliklar), Qadan (er.old. 13 ming yilliklar), Harif (er.old. 9 ming yilliklar), Fayum (er.old. 9 ming yilliklar), Merimde, El-Omari, Maadi, Nabta, Tasian, Badar, Nakad, Amrat, Gerzen (er.old. 3 ming yilliklar) kabi madaniyat o`choqlari va 5 mingga yaqin shaxar tarmoqlari mavjud bo`lgan. [1;55-b], [6]

Misr janubdan Nubiya bilan chegaradosh bo`lgan. Bu mamlakatga misrliklar Nil bo‘ylab oltin, qatron, fil suyagi, nodir navli yog‘ochlarni ayriboshlash uchun borgan. Misr g‘arbida, Liviya cho‘lida shu nomdagi mamlakat joylashgan edi. Sahro aholisi ko‘chmanchi chorvadorlar bo`lgan. Quyi Misrdagi Memfis shahri orqali o‘tadigan yo‘l Sinay yarimoroliga olib borgan, bu yerda esa mis qazib olingan. Sinay yarimorolidan shimolroqda Falastin, uning yonboshida Suriya joylashgan. Bu mamlakatlar mis va temir rudasiga hamda boshqa foydali qazilmalarga boy bo`lgan. Misrliklar Falastin va Suriyadan hunarmandlar yasagan nodir buyumlar va qimmatbaho toshlarni olib kelgan. Qadimgi podsholik davrida Sinay yarimoroli bosib olinadi, mahalliy qabilalar Misrga soliq to‘lay boshlashdi. Fir‘avnlar Nubiya va Liviyaga ham yurish qilib, shaharlarni talaydi, asirlar, chorva mollari va boshqa boyliklarni egallab oldilar. O‘rta podsholik fir‘avnlari Janubiy Falastin yerlari va Nubiya shimolini Misrga qo‘sib olishga erishgan.

Mil. avv. XVIII asr oxirida ko‘chmanchi giksos qabilalari Misrga hujum qildi. Misrliklarning piyoda qo‘sishnidan farqli o‘laroq giksoslarning asosiy kuchi otlar

qo‘shilgan jangovar aravalari bo‘lgan. Bir askar otlarni boshqarib turgan, ikkinchisi esa kamondan dushmanlarni nishonga olib o‘q uzgan. Quyi Misrni bosib olgan giksoslar misrliklarning shahar va qishloqlariga hujum qildi, ularni ayovsiz taladi va odamlarni asirlikka haydab ketdi. Bu vaqtida O‘rta podsholik ko‘plab mayda «Nom»larga bo‘linib ketgandi, ular giksoslarga soliq to‘lardi. Faqat Fiva shahri hukmdorlarigina giksoslarga itoat qilmadi. Bosqinchilar zulmidan xalos bo‘lish taraddudiga tushib qolgan «Nom»lar hukmdorlari Fiva shahri atrofiga birlasha boshladi.

Misrda musiqa madaniyat

Qadimgi Misr musiqa madaniyatining ildizlari miloddan avvalgi IV ming yillikning oxiri, III ming yillikning boshlariga borib taqaladi. Bu borada bizgacha yetib kelgan ma‘lumotlarning asosiy qismini madaniyat yodgorliklari tashkil etadi. Jumladan, cholg‘u asboblari, ikonografik materiallar (barelyef va boshqa tasvirlar), madhiyalar va qo‘shiqlarning so‘z matnlari, qadimgi Yunon va Rim faylasuflarining qo‘l yozmalari bundan dalolat beradi.

Qadimiy Misr musiqasidan saroy va haram ibodatlarida foydalanilgan. Shu bilan birga musiqa turi toifaga mansub insonlarning dam olish vositalaridan biriga ham aylandi. Shu bois Misrda musiqa “xi” ya‘ni “orom” olish so‘zi bilan nomlanishi tabiiy holdir. Jamoa saflanishi davridan avval quyidagi cholg‘ular mavjud edi: ya‘ni qo‘ng‘iroqchalar, sistr, kolotushka hamda aerofonlarning ilk shakllari esa – hushtak va fleytalar hisoblangan. Ilk Qadimiy va O‘rta podsholik darida (miloddan avval 3000 – 1700 asrlar) qamishdan yasalgan nay, uffata fleytalari, truba, arfa, turli xil barabanlar, shiqqildoqlar amalda ya‘nikim, yuqorida sanab o‘tilgan marosimdalara keng qo‘llanilgan. Bu davrga kelib esa, piktografik notalashtirish va musiqani koinot jismlari bilan bog‘lash nazariyasining ilk namunalarini ham paydo bo‘la boshladi. Misr ibodatxonalarida o‘tkazilgan marosimlarda musiqa namunalaridan keng tarzda foydalanilgan. Bu borada xudolar Osiris, Isida, Tot (ular musiqa san‘atini yaratuvchilari deb hisoblangan) larga bag‘ishlab o‘tkazilgan ibodatlar alohida qayd qilingan. Qadimgi Misrning musiqiy ladi ya‘ni (cholg‘ular tuzilishining tahviliga ko‘ra) pentatonikaga asoslangan holda bo‘ladi. Shuni ta‘kidlash joizki, bu davrlarda saroy musiqasi ham, ma‘lum darajada o‘ziga xos bo‘lgan. Saroyda ijro etilgan musiqalar (xor qo‘shiqchiligi, marosim kuylari, ayollarning qo‘shiq – yig‘ilari va raqslari) yurish harakarlari hamda, dramatik epizodlar bilan biriktirilgan holda kelgan.

Miloddan avvalgi III ming yillikda Misrda “xeyronomiya” rivoj topib (xeyronomiya taxminlarga ko‘ra notalashtirish vazifasini ham bajargan) keng tarqaldi. Qadimgi podshohlik davrida professional musiqachilar (ko‘p hollarda saroy musiqachilari) ijtimoiy tabaqasi shakl topdi. Ular ichida Xemre, Xufu - Anx va boshqalar mashhur bo‘lgan. [3;9-b].

Musiqa cholg‘ulari - goboy , uchburchakli arfa, lira, lyutnya, kifara va boshqa cholg‘ular bilan boyitildi. Ko‘p cholg‘ularni mukammal tarzda tuzilishi to‘liq xromatik tovushqatorni amalda qo‘llash imkonini yaratib berdi. Yunon - rim ta‘siri ostida esa, Misrda (miloddan oldin 332-395 yillar) keng miqyosida avlos, ko‘ndalang fleyta, buksina, turli xil lira, lad - garmonikasi, baraban va boshqa asboblaridan foydanildi. Miloddan avvalgi III asrda Aleksandriya gidravlos cholg‘usi ham kashf qilindi. [Levik B.Chet el musiqasi tarixi. - 1981 17-bet]. Bundan tashqari shiqildoq, tartarak hamda chig‘anog‘lardan yasalgan hushtaklar hisoblanadi. Maqbaralar devorlariga ishlangan bralyeflar maishiy turmushda musiqa tarqaganiga guvohlik beradi. Ommaviy bayramlar, diniy turli hildagi marosimlar, mehnat jarayonlari musiqasiz tasavvur etib bo‘lmagan. Misrda bir ovozli musiqa rivoj topgan. Yangi podshohlik davrida ko‘p ovozli musiqaning sodda shakllari ham paydo bo‘lgan. Raqslar, sahma tomoshalari, badiiy adabiyot musiqa bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Arfa, nay, yog‘och va jez karnay, organ, urma zarbli musiqa asboblari keng ommalashgan. Qadimgi Misrda musiqa ijrochilar, professional musiqachi, shoirlar mo‘tabar zotlar sanalib, fir‘avn larga qarindosh deb hisoblashishgan. Ellistik va Rim davrida Misrda musiqa o‘ziga xosligi aytarli darajada saqlab qolgan. Rim hukmronligi barham topgach esa, turk, arab va boshqa xalqlar musiqa madaniyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib qolgan.

Elam tarixi

Eron bilan Mesopotamiyani bir biriga bog‘lab turgan Elam (tog‘li o‘lka) bo‘lib, Old Osiyoning o‘ziga xos madaniyatining qadimgi markazlaridan biri shu yerda bo‘lgan. M.avv. VI-V mingyilliklarda xozrgi Eronning Karun va Kerxi daryo havzasida ibridoiy odamlar gavjum bo‘lib yashashgan. Bu yerlik aholi termachilik, ovchilik, baliqchilik va suv hayvonlarini tutib , tirikchilik qiladilar.

Shu davrda Eronning janubiy qismida xo‘jalik rivojlanadi. Xususiy mulk,mulkiy tengsizlik va tabaqlanish jarayoni sodir bo‘ladi. Ular keyinchalik Karun va Kerxi daryo bo‘ylarida dastlabki sug‘orma dehqonchilikka o‘ta boshlaydilar. M.avv.VII-VI mingyilliklarda g‘arbiy Eronda dehqonchilik bilan shug‘ullangan o‘troq va ko‘chmanchi chorvador qabilalar, m.avv.VI-V mingyilliklarda Eronning hududiga tarqaladi. M.avv. III mingyillik boshlarida janubi-g‘arbiy Eronda poytaxti Suza bo‘lgan Elantu (Bobil va ossur tilida «mamlakat») yoki Elam ilk davlat birlashmasi shakllanadi. M.avv. 2230-yil Elam hukmdori Xita Akkad podshosi NaramSuen bilan shartnomaga tuzadi.Hukmdor Xita «Naram-Suenning dushmani mening dushmanim, Naram-Suenning do’sti mening do’stim» deb e’lon qiladi.Elam M.avv. XXIV-XXII asrlarda Akkad va Bobil podsholiklariga qaram bo‘lib qoladi. M.avv. XXII asr boshida mustaqil davlatga aylanadi. Shu asr boshlarida Kutih-Inshushinak Elamni birlashtirib, uni yagona davlatga aylantiradi. Podsho sukkalmax (buyuk elchi) unvoni bilan Suzadan turib, davlatni boshqargan.

Lagash hokimi Eanmatum Elamni tor-mor qiladi. Akkad podshosi Manishtrisu Anshanni (bu Elam davlatidagi o’lkalardan biri bo’lishi kerakligi to’g’risida ma’lumotlar beriladi) bosib olib, shu shaharga xiroj to’lattirgan. Ur III sulolasi davrida Elam davlati Mesopotamiya hukmdorlariga tobe etiladi. Urning III dinastiyasi podshosi Shulga zamonida shumerlar Elamni ba’zi bir viloyatlarini batamom istilo qilgandan keyin, bu hududlarni shumerlarning maxsus amaldorlari tomonidan boshqariladi.Urdagi III dinatsiya ag’darilishi Elamni ozod bo’lishi va mustaqil podsholikni qayta tuzishga imkon beradi.So’ngra yana M.avv. XXI asrgacha Shumer va Akkad davlatlariga elamliklar qaram bo’lib qoladilar.M.avv.XXI asr oxirida Elam yana kuchayadi, mustaqillikka erishadi va qo’shni hududlarni, Janubiy Shumerni bosib oladi. Bobil podshosi Xammurapi esa elamliklarni Shumerdan haydab chiqaradi. M.avv. 1730-1700 yillarda Elam qo’shinlari Mesopatamiyaga bostirib kiradi va Akkadgacha bo’lgan yerkarni bosib oladi.Biroz muddat Elam o’z mustaqilligini saqlab turadi, keyinchalik bobilliklarga tobe bo’lib qoladi. M.avv. 1155-1115-yillar Elam podsholigini gullagan davri hisoblanadi. M.avv. 1115-yil Elamliklar bobilliklardan yengilib, yana mustaqilligini yo’qotadi. M.avv. VIII asrda Elam mustaqilligini qayta tiklashga muvaffaq bo’ladi, bobilliklar bilan ittifoq tuzib, ossurlarga qarshi kurash boshlaydi. M.avv. VIII-VII asrlarda Elam va Ossuriya o’rtasida juda qattiq va keskin kurash bo’lib o’tadi va kurash Ossuriya podshosi Ashshurbanapalning qo’shinlari poytaxt Suzani tormor keltirishi bilan tugaydi. VIII asrda podsho Sargon II Elam qo’shinlari bilan to’qnashadi. Keyinchalik yana bir Ossuriya podshosi SinaxeriElam ustiga juda ko’p qo’shin tortib boradi.Podsho Sinaxerib o’z harbiy yurishlari haqida yilnomalarda shunday ma’lumot qoldiradi: «Men mustahkamlangan 34 ta shaharni va kichik shaharlarni, qishloqlarni qamal qildim, taladim, yer bilan yakson qildim , o’t qo’ydim va juda katta yong’indan chiqqan tutun osmonni bo’ronday qoplab oldi». Elam M.avv. 549-yilda forslar tomonidan bosib olinadi va shu bilan davlat barham topadi. Shunday qilib bir necha asrlar davomida shummerlarga, bobilliklarga hamda ossuriyaliklarga qarshilik ko’rsatgan hatto Mesopotamiya davlatlariga qarshi bir necha bor hujumga o’tgan, g’alabalar qozongan Elam davlati tanazzulga yuz tutadi.

Elam tarixining boshlanishi m.avv. III mingyilliklarga to’g’ri keladi. Davlatda suratli xat mustaqil ravishda paydo bo’lgan bo’lib, keyinchalik bu xat mixxat yozuvi bilan almashtirilgan. Mixxat esa, Mesopotamiyaning qadimgi xalqlaridan o’zlashtirilgan. Dastlab mixxat matnlari akkad tilida yozilgan bo’lib, m.avv II mingyillikdan esa elamiy tilida yozila boshlangan. Ossuriya podshosi Ashshurbanapal Suzni bosib olgan davrda ham elamiy tili fors va bobil tillari bilan birga yashayveradi. Behistun yozuvining uch tilda bo’lganligi bunga dalildir.Elamning qulashi yangi xalqlarning ,eron tili guruhidagi midiya va forslarning kelib chiqishiga sabab bo’lgan. Elama ilda davlatlar tashkil topgan davrdan boshlab Korun va Kerxi daryo bo’ylarida

sug’orma dehqonchilik, tog’li hududlarda esa, chorvachilik bilan shug’ullanib kelganlar.

Dehqonchilikda bug’doy, kunjut, tariq, arpa kabi ekinlar ekilgan va uzum, olma, nok, xurmo va sabzavotlar yetishtirilgan. Chorvachilikda yirik shoxli qoramol,qo’yechki, ot,va eshak boqilgan. Elamda temirchilik, kulolchilik, zargarlik, to’qimachilik, miskarlik, hunarmandchilik, me’morchilik va boshqa sohalar rivojlangan. Elam shohlari va savdogarlari uzoq-yaqin mamlakatlar bilan savdo-sotiqlar olib borishga intilganlar. Yer uchastkalari tamomila ayollar ixtiyorida bo’lgan. Taxt me’rosligi ham o’ziga xos tartibi bo’lib, unda taxt otadan o’g’ilga o’tmay, balki akadan ukaga o’tgan.Qadimgi Elam, Midiya va Eron tarixini o’rganishda G.Kardashin, G.Petgov, E.Zeydlya, I.P.Veynberg, M.Delafus, J.de Morgan, R.de Mekenem, R.Grishman, E.Nechaxban, V.M.Masson va boshqa olimlarning xizmatlari benihoya kattadir.

Elam musiqa madaniyati

Saqlanib qolgan yozuvli ma`lumotlarning nihoyat darajada kamligi tufayli eng qadimgi Fors musiqasi haqida bat afsil xronologik jarayonni yaratish mumkun emas. Garchi fors musiqasi devoriy rasmlardan ancha oldin vujudga kelgan bo`lsa ham, u haqidagi eng birinchi tasdiqlangan ma`lumotlar eramizdan avvalgi 3300-3100 yillarga tegishli bolgan, Elam badiiy tasvirlaridagi kamonli arfa cholg`usining tasviri hisoblanadi. yozma manbalarida keltirilgan. Elamning eng katta shaharlaridan biri bo’lgan Suza (Eronning janubiy g‘arbida joylashgan qadimiy shahar. Qadimgi Elamning eng qadimiy poytaxtlaridan biri)shahri harobalaridan topilgan buqa shohidan yasalgan liralarning yoshi taxminan eramizdan avvalgi 2450 yillarga borib taqalsa, Baqtirya (markaziy osiyodagi qadimgi davlat) va Marg`iyona (markaziy osiyo hududlaridagi qadimgi davlat) ning Oksus (Amudaryoning qadimgi nomlaridan biri) manzilgohidan topilgan 40 dan ortiq naylarning yoshi ermizdan avvalgi 2200- 1750 yillarga tegishli bo`lib, ular zardushtiylik diniy qarashlari va afsonalari bilan bog`liq cholg`u hisoblanadi.

Olimlarning fikriga ko`ra elamlilar nayni ov vaqtida hayvonlarni jalg qilish vositasi sifatida ishlatishgan, chunki, zardushtiylik afsonalarining birida Jamshid ismli qaxramon, hayvonlarni o`ziga jalg qilish uchun naydan foydalananadi. Shuni takidlash joizki, bizga ma`lum bo`lgan Eronning eng qadimgi musiqa madaniyati,ko`p jihatdan Mesopotamiya musiqa madaniyati bilan chambarchas bog`langan. Manbalarning kamligi tufali ushbu tamaddunlarning qay birida kamonli arfa cholg`usining birinchi paydo bo`lganligi ham noma`lum bo`lib qolmoqda. Mesopatamiyaning Ur shahridan topilgan liralar, biroz kechroq topilgan Elam liralari bilan deyarli bir hil bo`lsada, Ur liralari qadimgiroq va son jihatidan ko`prokdir[2;70-78 b].

Miloddan avvalgi II-asrlarga tegishli bo`lgan loy yozuvlarga ko`ra, vaqt o`tishi bilan kamonli arfalarni uch burchak ko`rinishdagi, yigirma torli vertikal va to`qqiz torli

gorizontal arfalar muomiladan chiqargan. Lytnyalar Mesopotamiyada taxminan eramizdan avv 2300 yillarda ishlatilgan bo‘lsa, Elamda faqatgina eramizdan avv 1300 yillarda paydo bo‘lgan va ko‘p o‘tmay G‘arbiy Elamning asosiy torli cholg‘u asbobiga aylangan, ammo mavjud dalillar yuqori tabaqa vakillari orasida lyutnyalarning mashhur bo`lmaganligidan dalolat beradi. Eronning hozirgi Huziston viloyatida joylashgan qadimgi Elam manzilgohlaridan biri bo`lgan Choga Mish1da olib borilgan qazishma ishlarida, eramizdan avvalgi 3000 yillarga tegishli bo`lgan musiqachilar tasviri topilgan. Fors saroylarida tashkil qilingan murakkab tarkibli musiqa cholg`ulari ansambllarining eramizdan avvalgi I-asrlarda vujudga kelanligini va ushbu ansambllarning markaziy asbobi do`g`asimon arfalar bo`lganligini Kul-e-Farax(arxeologik yodgorliklar va ochiq osmon ostidagi qo‘riqxona . Eronning janubiy g‘arbida Malanir tog‘ vodiysida , dengiz sathidan tahmiman 800 m balandlikda joylashgan) manzilgohlaridagi qoyatoshga ishlangan o‘ymakorlik obidalari isbotlaydi. Qoyatoshdagi musiqachilarning markaziy o‘rinlardan birida ekanligi , ularning diniy marosimlarda kerakli shaxslar bo‘lishganligidan dalolat beradi.

Parfiyaning qadimgi poytaxt Nisoda topilgan eramizdan avvalgi II asrga oid buqa va boshqa shoxdor hayvonlar shoxlaridan ishlangan qadaxlarga chizilgan rasmlar, o’sha davr musiqachilarining eng yorqin tasvirlarini o‘z ichiga oladi. Sopol idishlar va boshqa Sopol buyumlarga ishlangan tasviriy dalillar saroy musiqachilari orasida ayol Arfachilarining, Bobil loy xatlarida esa naylarni, shuningdek torli (arfa, lyutnya va lira) va zarbli asboblarni (daflar va shiqildoqlar) bo`lganligini ko’rsatadi. Dura-Evropes shaxri qazilmalariga tegishli bo`lgan bronza haykallarda, ancha katta Ko‘rinishdagi naylar va qo’sh naylar tasvirlangan. Musiqa marosim bayramlarida aniq qo‘llanilgan Hatradan topilgan Parfiya davrilariga oid tosh naqshlarda karnay, daf va turli ko‘rinishdagi fleytalarni chalishayotgan musiqachilar ishtiroki etayotgan to‘y tasvirlangan. Boshqa matnli va ikonografik dalillar Parfiya va Sosoniylar davriga kelib ham gosanlarining obro`-e’tibori saqlanib qolganligiga ishora qildi.

Yunon geografiya va tarixchisi Strabonning ta‘kidlashicha , musiqa Parfiya yoshlarini tarbiyalashda asosiy vositalardan bo‘lgan va o‘qituvchilar undan dars va boshqa turli tarbiya jarayonlarida foydalanishgan. Rim tarixchisi Geradotning aytishicha , parfiyaliklar “ fleyta va nog‘ora sadolari ostida“ raqsga tushishgan.

Xulosa:

Qadimgi Misr va Ellam tamaddunlarida musiqa o‘zining diniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati bilan ajralib turardi. Misrda musiqa, asosan, diniy marosimlar, saroy hayoti va ijtimoiy tadbirdorda muhim rol o‘ynagan. Musiqa ibodatlarda, tanrilarni ulug‘lashda va marosimlarni bajarishda ishlatilgan. Misrning musiqiy asboblari, masalan, harf, qobuz, va arp kabi asboblар diniy ayinlarda qo‘llanilgan va ular o‘ziga xos jozibasi bilan ajralgan. Shu bilan birga, Misr madaniyatida musiqa inson ruhiyatini tinchlantirish va sog‘likni yaxshilash vositasi sifatida ham muhim bo‘lgan. Ellam

tamaddunida ham musiqa va raqs madaniyati katta o‘ringa ega edi. Ellamlarda musiqa, nafaqat diniy marosimlarda, balki jamiyat yig‘inlari va bayramlarda ham keng qo‘llanilgan. Musiqa va raqs inson ruhiyatini yuksaltirish, tabiat bilan uyg‘unlashish va tinchlikni saqlashda vosita sifatida qaralgan. Ellamlar musiqa va raqsni falsafiy nuqtai nazardan ham o‘rganib, ularni ilmiy va ma’naviy rivojlanishning ajralmas qismi deb hisoblashgan. Musiqa orqali insonning ichki olamini ifodalash va uni yaxshilashga intilganlar. Shunday qilib, qadimgi Misr va Ellam tamaddunlarida musiqa nafaqat san’at, balki diniy va falsafiy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, jamiyat hayotida muhim rol o‘ynagan. Bu tamaddunlarning musiqa merosi bugungi musiqiy san’at va madaniyat rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X. Sh. Raxmatullayev, Jahon musiqasi tarixi – Infronprint; Termiz – 2023
2. X. Sh. Raxmatullayev, Musiqasi tarixi – Buxoro determinant; Buxoro – 2023
2. Ibrohimov O.A, Xudoyev G‘.M, Musiqa tarixi- Toshkent-2018
3. Lexik.B Chet el musiqasi tarixi. - T.1981.
5. Chet el musiqasi tarixi. Ma‘ruzalar matni. To‘plovchi: A.S.Qo‘shayev. -Buxoro, 2006.
6. Raxmatullaev, X. S. (2023). Eramizgacha bolgan davrlarda Qadimgi Misr musiqasi. Академические исследования в современной науке, 2(9), 97-101.
7. Tursunova R, Tursunova G. Jahon musiqa tarixi. - T. Voris, 2017.
8. Kabirov.A Qadimgi sharq tarixi. Toshkent-2016
- 9.C.A. Хайдаров (2020). Узбекистон тарихини уқитишда „Зафарнома“дан фойдаланишни имкониятлари.
- 10.B. Lowergren, “Musiqa asboblari va tovushlarning kelib chiqishi”. Antropos. Nomos Verlagsgesellschaft mbH. bd. 83 (H. 1./3): 31-45. (1988). JSTOR 40461485.
11. Devid Guron, "Musiqa evolyutsion moslashuvmi?". Musiqaning kognitiv nevrologiyasi. (2003). ("Peretz & Zatorre" kitobida (2003 yil, 57-75-betlar)
12. Robert Anderson, "I. Ilk musiqa". Misr, Arab Respublikasi. Grove musiqa onlayn. (2001). (Anderson, Kastelo-Branko va Danielsonda (2001)
13. Veit Erlmann, (1973–1974). "G‘arbiy Sudandagi musiqa bo'yicha ba'zi manbalar 1300-1700". Afrika musiqa. Afrika musiqasi xalqaro kutubxonasi. 5(3):34-39. doi: 10.21504/amj.v5i3.1656. JSTOR 30249969.
13. Gerxard Kubik, "Afrika". Grove musiqa onlayn. Oksford: Oksford universiteti nashriyoti. (2001). doi: 10.1093/gmo/9781561592630.maqola.00268. ISBN 978-1-56159-263-0. (Obuna yoki Buyuk Britaniya jamoat kutubxonasiga a'zolik talab qilinadi)